G'aniyev Sanjar Poziljon o'g'li	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ УЧЕТА ЗАТРАТ И АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНАЯ БАЗА И МСА.....	1716
Юлчиев Ойбек Улуғбек ўғли	
TIJORAT BANKLARIDA YANGI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHDA XORIJIY TAJRIBALARNI INTEGRATSIYALASH YO'LLARI	1723
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	1731
Isroilov Dilshodbek Rustamovich, Isroilova Odina Rustambek qizi	
O'RMON XO'JALIGINI MOLİYALASHTIRISHDA MOLİYAVIY RESURLAR VA MANBALAR.....	1737
Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna	
ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI, ISROFI VA YO'QOTISHLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI.....	1743
Nazarova Gulbahor Raxmonkulovna	
KORXONA FOYDASI VA UNING RAQOBATBARDOSH NARX SIYOSATINI MAKSIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	1748
Axmadjonov Murodjon Axadjon o'g'li	
DEVELOPMENT PRIORITIES FOR THE FRUIT AND VEGETABLE SECTOR IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S FOOD SECURITY POLICY	1754
Nazarova Munavvar Soatmurod qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA HR MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1761
Xamroyeva Kumush Alisherovna	
QURILISH SANOATIDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI.....	1768
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
TURISTIK DESTINATSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	1772
Bekberganov Izzat Hurmat o'g'li	
TRANSPORT XIZMATLARI BOZORI TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI	1775
Jo'rayeva Shahzoda Farhod qizi	
O'ZBEKISTONDA QURILISH MAXSULOTLARI ISHLAB CHIQRADIGAN KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGI TAHLILI	1781
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK MAHSULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI.....	1788
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
PR-BO'LIMI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TARKIBIY-FUNKTSIONAL YONDASHUVLARI.....	1792
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	
TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS TENDENSIYALARI	1797
Xujakulova Odina Valijonovna	
DAVLATNING IQTISODIY MUVOZANAT VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI ROLI.....	1805
Uzoqov Bekzod Bozor o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MAHALLIY MODA BRENDINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	1810
Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	
DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN	1817
Sadinova Maqsuda Azamjonovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI	1824
Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1832
Djurayev Laziz Tursunboyevich	
TA'LIM TASHKILOTLARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETINGNING ROLI	1836
Raximov Faxriddin Shavkatovich, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
TURIZM INDUSTRIYASI VA TURIZM INFRATUZILMASINING MOHIYATI HAMDA TARKIBIY QISMLARI	1844
Mo'minova Mavjuda Sharifovna	
МОДЕРНИЗАЦИЯ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1849
Бозорова Озода Рахимовна	
EKSPORT FAOLIYATINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI.....	1854
To'rayeva Yulduz Shamsiddin qizi	
ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI	1859
Tulyaganova Aziza	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA INVESTISIYALARNI YO'NALTIRISHDA QULAY INVESTISION MUHITDAN OQILONA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1864
Xikmatov Xayrullaxon Maxmurxonovich, Bo'riyev Lochinbek Ortiqbopoyevich	
O'ZBEKISTONDAGI KLASSTERLARNING FAOLIYATI TO'G'RSIDA.....	1870
Azimova Feruza Payziyevna, Yuldashev Samad Normo'minovich	
ФИНАНСОВОЕ ОЗДОРОВЛЕНИЕ КАК СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОМПАНИИ	1875
Алиева Сусанна	
PUL-KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	1881
A.A. Ismailov	
ALOQA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA INNOVATSION XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	1887
Shirinova G.X.	
XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1893
Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA RIVOJLANISHI: 2017-2025-YILLAR DINAMIKASI TAHLILI	1900
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgazievich, Allamberganova Nargiza Kuanishbayevna, Turg'anbayeva Ramiza Tolibayevna	
ГЛОБАЛЬНЫЕ И ЛОКАЛЬНЫЕ ТРЕНДЫ ИННОВАЦИЙ В СФЕРЕ БАНКОВСКИХ УСЛУГ	1907
Махмаджанов Мухаммадали Музаффарович	
YO'LOVCHI TRANSPORT XIZMATLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	1912
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Aktamov Abduvali Abdug'ani o'g'li	
BUXORO VILOYATIDA HUNARMANDCHILIK SOHASINING RIVOJLANISHI: EKONOMETRIK TAHLIL VA PROGNOZ (2014-2030-YILLAR)	1917
A.F. Ergasheva	



BUXORO VILOYATIDA HUNARMANDCHILIK SOHASINING RIVOJLANISHI: EKONOMETRIK TAHLIL VA PROGNOZ (2014–2030-YILLAR)

A.F. Ergasheva

Buxoro Innovatsiyalar universiteti, Moliyaviy texnologiyalar,
iqtisodiyot va logistika kafedrası dotsenti (PhD)
azizaergasheva1986@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyatida hunarmandchilik sohasining 2014–2024-yillar davomidagi rivojlanish dinamikasi va 2030-yilgacha prognozi ekonometrik modellashirish usullari yordamida tahlil qilingan. Tadqiqotda hunarmandchilik mahsulotlari eksport hajmi, ishlab chiqarilgan mahsulotlar, hunarmandlar soni, ajratilgan kreditlar va bandlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik ko'p omilli ekonometrik model orqali baholangan. Eng kichik kvadratlar usuli, korrelyatsion-regressiya tahlili, Diki-Fuller statsionarlik testi, Darbin-Uotson avtokorrelyatsiya testi va Fisher F-mezoni qo'llanilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, tadqiqot davrida eksport hajmi yillik o'rtacha 172 foizga oshgan, hunarmandlar soni 854 nafardan 2552 nafarga yetgan, ajratilgan kreditlar 22 foiz o'sgan. Tuzilgan ekonometrik modelning determinatsiya koeffitsiyenti ($R^2=0,9078$) yuqori aniqlikni ta'minlaydi. Prognoz hisob-kitoblari 2030-yilda eksport hajmining 623 140 mln so'mga, hunarmandlar sonining 3 508 nafarga, bandlik darajasining 14 734 nafarga yetishini ko'rsatmoqda. Tadqiqot natijalari mintaqaviy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, aholi bandligini oshirish va eksport salohiyatini kuchaytirish siyosatini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: hunarmandchilik, ekonometrik modellashirish, eksport hajmi, bandlik, prognozlashtirish, Buxoro viloyati, regressiya tahlili, iqtisodiy diversifikatsiya, kredit qo'llab-quvvatlash, mintaqaviy rivojlanish.

Abstract. This article analyzes the development dynamics of the handicraft sector in Bukhara region from 2014 to 2024 and provides forecasts until 2030 using econometric modeling methods. The study evaluates the relationship between handicraft product export volume, production output, number of artisans, allocated credits, and employment indicators through a multivariate econometric model. The least squares method, correlation-regression analysis, Dickey-Fuller stationarity test, Durbin-Watson autocorrelation test, and Fisher F-test were applied. Analysis results demonstrate that during the study period, export volume increased by an average of 172% annually, the number of artisans grew from 854 to 2,552 people, and allocated credits increased by 22%. The constructed econometric model's coefficient of determination ($R^2=0.9078$) ensures high accuracy. Forecast calculations indicate that by 2030, export volume will reach 623,140 million soums, the number of artisans will reach 3,508 people, and employment will reach 14,734 people. The research findings have practical significance for developing policies on regional economic diversification, increasing employment, and strengthening export potential.

Key words: handicraft, econometric modeling, export volume, employment, forecasting, Bukhara region, regression analysis, economic diversification, credit support, regional development.

Аннотация. В данной статье проанализирована динамика развития сферы ремесленничества в Бухарской области за период 2014–2024 годы и составлен прогноз до 2030 года с использованием методов эконометрического моделирования. В исследовании оценена взаимосвязь между объемом экспорта ремесленной продукции, произведенной продукции, численностью ремесленников, выделенными кредитами и показателями занятости с помощью многофакторной эконометрической модели. Применены метод наименьших квадратов, корреляционно-регрессионный анализ, тест стационарности Дики-Фуллера, тест автокорреляции Дарбина-Уотсона и F-критерий Фишера. Результаты анализа показывают, что за исследуемый период объем экспорта увеличивался в среднем на 172% ежегодно, численность ремесленников выросла с 854 до 2 552 человек, объем выделенных кредитов увеличился на 22%. Коэффициент детерминации построенной эконометрической модели ($R^2=0,9078$) обеспечивает высокую точность. Прогнозные расчеты показывают, что к 2030 году объем экспорта достигнет 623 140 млн сумов, численность ремесленников составит 3 508 человек, уровень занятости достигнет 14 734 человека. Результаты исследования имеют практическое значение для разработки политики диверсификации региональной экономики, повышения занятости населения и укрепления экспортного потенциала.

Ключевые слова: ремесленничество, эконометрическое моделирование, объем экспорта, занятость, прогнозирование, Бухарская область, регрессионный анализ, экономическая диверсификация, кредитная поддержка, региональное развитие.



KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va diversifikatsiyasi milliy strategiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda hunarmandchilik sohasi mintaqaviy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, aholi bandligini ta'minlash va milliy eksport salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Buxoro viloyati boy madaniy merosi va hunarmandchilik an'analari bilan ajralib turadi, bu esa hududda ushbu sohaning rivojlanishi uchun qullay imkoniyatlar yaratadi. 2014–2024-yillar davomida viloyatda hunarmandchilik sohasida sezilarli o'zgarishlar ro'y bergan: eksport hajmi yillik o'rtacha 172 foizga oshgan, hunarmandlar soni deyarli uch barobar ko'paygan, ajratilgan kreditlar hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Biroq, bu dinamik jarayonlarning ilmiy asoslanganligini ta'minlash, sohaning kelajak istiqbollarini prognozlashtirish va ta'sir etuvchi omillarni aniqlash zarurati tug'ilmoqda. Ushbu tadqiqot Buxoro viloyatida hunarmandchilik sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik tahlil usullari yordamida o'rganish, asosiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va 2030-yilgacha ishonchli prognozlarni ishlab chiqishni maqsad qilgan. Tadqiqotda ko'p omilli ekonometrik modellashtrish, korrelyatsion-regressiya tahlili, statsionarlik va avtokorrelyatsiya testlari qo'llanilgan bo'lib, olingan natijalar mintaqaviy iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun ilmiy asos yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hunarmandchilik sohasining mintaqaviy rivojlanishini ekonometrik tahlil qilish masalasi bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Gujarati va Porter (2009) o'zlarining fundamental asarida ekonometrik modellashtrish asoslarini, eng kichik kvadratlar usuli va regressiya tahlilining turli xillarini batafsil yoritgan. Wooldridge (2019) zamonaviy ekonometrik yondashuvlar, panel ma'lumotlar tahlili va prognozlashtirish metodologiyasini takomillashtirgan. Baltagi (2021) panel ma'lumotlar ekonometrik tahlilida statsionarlik testlari va dinamik modellarni qo'llashni ta'kidlagan. Dickey va Fuller (1979) hamda Durbin va Watson (1950) tomonidan ishlab chiqilgan testlar vaqt qatorlari tahlilida statsionarlik va avtokorrelyatsiyani aniqlashda keng qo'llanilmoqda. Mahalliy tadqiqotchilardan Ismoilov va Karimov (2020) mintaqaviy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning nazariy asoslarini, Abdullayev va Rahimova (2019) mintaqaviy rivojlanishni ekonomik-matematik modellashtrish usullarini ishlab chiqqan. Biroq, Buxoro viloyatida hunarmandchilik sohasining rivojlanishini kompleks ekonometrik tahlil qilish va uzoq muddatli prognozlash yo'nalishida maxsus tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan, bu esa mazkur ishning dolzarbligini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Buxoro viloyati hunarmandchilik sohasining 2014-2024 yillar davomidagi statistik ma'lumotlari bazaviy manba sifatida ishlatilgan. Ekonometrik tahlil uchun natijaviy o'zgaruvchi sifatida hunarmandchilik mahsulotlari eksport hajmi (Y), mustaqil o'zgaruvchilar sifatida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (X_1), hunarmandlar soni (X_2), ajratilgan kreditlar hajmi (X_3) va bandlik darajasi (X_4) tanlangan. Tadqiqot metodologiyasi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi: birinchidan, tavsifiy statistika (o'rtacha, mediana, standart og'ish, asimmetriya, eksness, Jarquye-Bera testi) orqali ma'lumotlar taqsimoti tahlil qilindi; ikkinchidan, Pearson korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi yordamida o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik zichligi va yo'nalishi aniqlandi; uchinchidan, VIF (Variance Inflation Factors) koeffitsiyentlari orqali multikollinearlik mavjudligi tekshirildi; to'rtinchidan, kengaytirilgan Dickey-Fuller testi yordamida natijaviy o'zgaruvchining statsionarligi baholandi; beshinchidan, eng kichik kvadratlar usuli (OLS) asosida ko'p omilli chiziqli regressiya modeli tuzildi; oltinchidan, Fisher F-mezoni orqali modelning statistik ahamiyatligi, Styudent t-mezoni orqali parametrlarning ishonchligi, determinatsiya koeffitsiyenti (R^2) orqali model sifati baholandi; yettinchidan, Durbin-Watson testi yordamida qoldiqlarning avtokorrelyatsiyasi tekshirildi; sakkizinchidan, har bir mustaqil o'zgaruvchi uchun trend modellari ($X=f(t)$) tuzildi va 2025-2030 yillar uchun prognoz qiymatlari hisoblandi; to'qqizinchidan, olingan prognoz qiymatlari asosiy ekonometrik modelga qo'yildi va natijaviy o'zgaruvchining kelajak qiymatlari aniqlandi. Barcha hisob-kitoblar STATA 15.0 statistik dasturi yordamida amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hunarmandchilik iqtisodiyotning aholi bandligini ta'minlash va milliy eksport salohiyatini oshirishda strategik ahamiyatga ega. 2014–2024-yillar davomida Buxoro viloyatida ushbu sohaning rivoji jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu davrda hunarmandchilik mahsulotlari eksport hajmi yillik o'rtacha 172 foizga oshgan bo'lib, bu milliy mahsulotlarning xalqaro bozorda raqobatbardoshligini kuchaytiruvchi omil sifatida qaralishi mumkin.



Hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2014-yildagi 100,472 million so'mdan 2024-yilda 250,469 million so'mgacha oshib, ushbu sohaning ichki bozor talabini qondirishdagi salohiyatini oshirib bormoqda. Shu bilan birga, hunarmandlarga ajratilgan kreditlar hajmi yillik o'rtacha 22 foizga oshgani, sohaning investitsion jozibadorligi va davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu ko'rsatkichlar viloyatda hunarmandchilik faoliyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Mazkur davrda hunarmandchilik sohasida band bo'lgan aholining soni ham sezilarli darajada oshgan. 2023-yilga kelib, ushbu tarmoqda band bo'lganlar soni 11,085 nafarga yetgani, sohaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini yanada kengaytirganligini anglatadi. Ushbu o'zgarishlar hunarmandchilikning viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rnini baholash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ayniqsa, sohada eksport hajmi 2023-yilda 378,998 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2024-yilda 250,469 mln so'mga yetgan. Ajratilgan kreditlar miqdori 2024-yilda eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, 14,378 mln so'mni tashkil etgan. Sohada band bo'lganlar soni 2023-yilda 11,085 nafarga yetgan (1-jadval).

1-jadval. Buxoro viloyatida hunarmandchilik sohasining 2014–2024 yillardagi rivojlanish ko'rsatkichlari¹

Yillar	Hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi (mln. so'm)	Hunarmadlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (mln. so'm)	Hunarmandlar soni (nafar)	Hunarmandlarga ajratilgan kreditlar miqdori (mln. so'm)	Hunarmandchilik bilan band bo'lganlar soni (nafar)
2014	3512	100472	854	2055	2327
2015	8872	111345	965	2844	3001
2016	9525	129732	1161	3537	4039
2017	10663	144809	1458	5419	5002
2018	160365	160940	1746	7418	5821
2019	296697	172656	2114	10214	6968
2020	157139	207020	2246	10326	5851
2021	174973	188578	1934	12054	4999
2022	307334	216977	2091	10681	8981
2023	378998	243534	2187	12058	11085
2024	376706	250469	2552	14378	10077

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Buxoro viloyatida hunarmandchilik sohasi rivojlanish ko'rsatkichlarining (2014-2024 yillar) ekonometrik tahlili amalga oshirilgan va 2030-yilgacha prognoz qilingan. Ekonometrik modelashtirish metodologiyasi asosida ko'p omilli ekonometrik tahlil o'tkazish uchun quyidagi omillar tanlab olindi. Natijaviy omil – hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi, mln. so'm (Y), ta'sir etuvchi omillar esa – hunarmadlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so'm (X_1), hunarmandlar soni, nafar (X_2), hunarmandlarga ajratilgan kreditlar hajmi, mln. so'm (X_3), hunarmandchilik bilan band bo'lganlar umumiy soni, nafar (X_4).

Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmiga (Y) ta'sir etuvchi omillar va ular asosida ekonometrik modellar tuzishda "Eng kichik kvadratlar" usulidan foydalanamiz. Ushbu usul asosida ekonometrik tadqiqotlar o'tkazish uchun omillar bo'yicha tavsifiy statistika o'tkazamiz.

Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi ma'lumotlari asosida tanlangan omillar bo'yicha o'tkazilgan tavsifiy statistika natijalari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

¹ Muallif ishlanmasi




2-jadval. Buxoro viloyatida hunarmandchilik xizmat ko'rsatish sifati va eksport hajmi o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha tavsifiy statistika natijalari²

Ko'rsatkichlar	Y (Eksport hajmi)	X1 (Marketing xizmatlari)	X2 (Logistika xizmatlari)	X3 (Sifat nazorati xizmatlari)	X4 (Konsalting xizmatlari)
O'rtacha qiymat	75403.90	83803.15	837.8000	8830.300	2903.700
Mediana	78569.50	82989.00	953.0000	4305.500	2649.500
Maksimal qiymat	199356.0	122952.3	1204.000	56626.000	5817.000
Minimal qiymat	1632.000	47325.00	415.0000	954.0000	1030.000
Standart og'ish	69284.07	23093.85	265.8253	1942.138	1513.275
Asimmetriya	0.332207	-0.022048	-0.350694	-0.217817	0.720712
Ekstsess	1.730432	1.908543	1.623835	1.502159	2.801371
Jarque-Bera testi	3.711040	4.010035	2.988146	5.027754	4.764295
Ehtimollik	0.025062	0.013482	0.070066	0.002810	0.008893
Jami	1508078.	1676063.	16756.00	76606.00	58074.00
Kvadratik og'ishlar yig'indisi	9.12E+10	1.01E+10	1342599.	71666106	32769138
Kuzatuvlar soni	20	20	20	20	20

2-jadval ma'lumotlaridan kuzatuv olib borilayotgan tanlamadagi har bir o'zgaruvchining o'rtacha qiymatlari, medianasi, maksimal va minimal qiymatlarini ko'rish mumkin. Masalan, natijaviy omilning (hunarmandchilik mahsulotlari eksporti hajmi, Y) o'rtacha qiymati 75403,9, mediana qiymati 78569,5, maksimal qiymati 199356,0, minimal qiymati esa 1632,0 ga teng. Standart chetlanish ko'effitsiyenti har bir o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymatdan qanchalik chetlanganligini ko'rsatadi.

Skewness – asimmetriya ko'effitsiyenti bo'lib, u nolga teng bo'lsa normal taqsimot ekanligi hamda taqsimotning simmetrikligini bildiradi. Agar bu ko'effitsiyent 0 dan ancha farq qilsa, u holda taqsimot asimmetrik hisoblanadi (ya'ni, simmetrik emas). Agar asimmetriya ko'effitsiyenti 0 dan katta bo'lsa, u holda taqsimot o'ng tomonga surilgan bo'ladi, 0 dan kichik bo'lsa, u holda taqsimot chap tomonga surilgan bo'ladi. Barcha omillarning taqsimot funksiyalari grafiklari quyidagi 3.34-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Hunarmandchilik sohasida xizmat ko'rsatish omillari taqsimotining grafik tahlili³

² Muallif ishlanmasi

³ Muallif ishlanmasi



Tahlillar ko'rsatishicha, 1-rasmda keltirilgan grafiklardan ko'rish mumkinki Y , X_1 va X_4 omillarning asimmetriya koeffitsiyentlari qiymatlari musbat bo'lib (1-jadval), ular taqsimotning o'ng tomonga surilganini ko'rsatadi. Ammo, X_2 va $\ln X_3$ omillarning asimmetriya koeffitsiyentlari qiymatlari manfiy bo'lib (1-jadval), ular taqsimotning chap tomonga surilganini ko'rsatadi.

Kurtosis - bu eksess koeffitsiyenti (normal taqsimotda u 3 ga teng) taqsimot cho'qqisining o'tkirligini o'lchaydi. Agar eksess koeffitsiyenti 3 dan katta bo'lsa, u holda taqsimot o'tkir cho'qqili bo'ladi, 3 dan kichik bo'lsa, tekis bo'ladi (tekis cho'qqi). Tadqiq qilinayotgan omillarning eksess koeffitsiyentlari qiymati 3,0 katta emasligi sababli, ular o'tkir cho'qqiga ega emas.

Jarque-Bera statistikasi yordamida omillarni normal taqsimotga bo'ysunishini tekshiramiz. Bundan tashqari Jarque-Bera statistikasi har bir omil uchun ehtimolliklarni ham ko'rsatadi. Agar Jarque-Bera statistikasi bo'yicha biror omilning ehtimolligi 0,05 dan kichik bo'lsa, ular normal taqsimotga bo'ysunadi va tuziladigan ko'p omilli ekonometrik modelga kiritiladi.

Demak, 2-jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, barcha omillarning Jarque-Bera statistikasi qiymatlarining ehtimolligi 0,05 dan kichik.

Ushbu omillarni ko'p omilli ekonometrik modelga kiritish yoki kiritilmasligi bo'yicha qaror qabul qilishdan oldin omillar o'rtasidagi bog'lanishlarni hisoblash zarur. Omillar o'rtasidagi bog'lanishlarni topish uchun korrelyatsiya koeffitsiyentlarini hisoblanadi.

Korrelyatsiya koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$r_{hY, hX_i} = \frac{\overline{hY \cdot hX_i} - \overline{hY} \cdot \overline{hX_i}}{\sigma_{hY} \cdot \sigma_{hX_i}},$$

bu yerda $\sigma_{hY}, \sigma_{hX_i}$ false - omillarning o'rtacha kvadratik chetlanishini ko'rsatadi.

Omillar o'rtasida bog'lanishlar qiymatlarini quyida keltirib o'tamiz. Korrelyatsion tahlil natijasida omillar o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi qiymatlari 2-jadvalda keltirilgan.

Quyidagi 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, bu yerda ko'p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan omillar o'rtasida bog'lanish zichliklari ko'rsatkichlari – korrelyatsion matritsa keltirilgan. Ushbu korrelyatsion matritsada 2 turdagi korrelyatsiya koeffitsiyentlarining hisoblangan qiymatlari keltirilgan.

1) Xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari, ya'ni natijaviy omil (Y) va ta'sir etuvchi omillar (X_i) o'rtasidagi bog'lanishlarni aks ettiradi.

2) Juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari, ya'ni ta'sir etuvchi omillar (X_i, X_j) o'rtasidagi bog'lanishlarni aks ettiradi.

Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y) va hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (X_1) o'rtasida bog'lanish zichligi 0,8638 ga teng. Bu esa ushbu ikki omil o'rtasida kuchli, to'g'ri bog'lanish mavjudligini ko'rsatmoqda. Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y) va hunarmandlar soni (X_2) o'rtasida bog'lanish zichligi 0,8278 ga teng. Mazkur omillar o'rtasida kuchli, to'g'ri bog'lanish mavjud ekan. Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y) va hunarmandlarga ajratilgan kreditlar hajmi (X_3) o'rtasida bog'lanish zichligi 0,6722 ga teng. Ushbu omillar o'rtasida o'rtacha, to'g'ri bog'lanish mavjudligini ko'rish mumkin. Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y) va hunarmandchilik bilan band bo'lganlar soni (X_4) o'rtasida bog'lanish zichligi 0,7122 ga teng ekanligi, mazkur omillar o'rtasida o'rtachadan yuqori, to'g'ri bog'lanish mavjudligini ko'rsatmoqda.

3-jadval. Hunarmandchilik xizmat ko'rsatish sifati omillari o'rtasida korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi⁴

Covariance Analysis: Ordinary

Date: 01/03/25 Time: 11:28

Sample: 2014S1 2023S2

Included observations: 20

Correlation

t-Statistic

Probability	Y	X1	X2	X3	X4
Y	1.000000				
X1	0.863814	1.000000			
	7.274272	-----			
	0.0000	-----			
X2	0.827762	0.622600	1.000000		

4 Muallif ishlanmasi



	6.259190	2.276917	-----		
	0.0000	0.0421	-----		
X3	0.672244	0.586504	-0.199887	1.000000	
	2.728393	2.083526	-0.763312	-----	
	0.0354	0.0560	0.4579	-----	
X4	0.712230	0.603457	0.456402	0.343375	1.000000
	4.447072	2.145199	1.919251	1.367966	-----
	0.0126	0.0462	0.0756	0.1929	-----

3-javdalda hisoblangan ma'lumotlar bo'yicha ta'sir etuvchi omillar o'rtasida juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari ham keltirilgan. Ushbu koeffitsiyentlar orqali omillar o'rtasida multikollinearlik aniqlanadi. Agar ta'sir etuvchi omillar (X_i , X_j) o'rtasida juft korrelyatsiya koeffitsiyentining hisoblangan qiymati 0,7 dan katta bo'lsa, omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud deyiladi. Omillar o'rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi hisoblangan 3-jadvaldan ko'rish mumkinki, Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida juft korrelyatsiya koeffitsiyentining hisoblangan qiymati 0,7 dan katta emas ekan. Bu esa o'z navbatida tanlangan barcha omillarni ko'p omilli ekonometrik modelga kiritish shartiga mos keladi.

Shuningdek, 3-jadvalda korrelyatsiya koeffitsiyentlarining ishonchligi va ehtimolligini aniqlash bo'yicha koeffitsiyentlar hisoblangan (hisoblangan korrelyatsiya koeffitsiyentlarining tagida joylashgan qatorlardagi qiymatlar). Har bir korrelyatsiya koeffitsiyentining pastki qismida uning Studentning t-mezoni hisoblangan qiymati va ehtimolli (prob.) keltirilgan. Omillar o'rtasida hisoblangan ehtimollik 0,05 dan katta bo'lmaslik sharti qo'yiladi. Masalan, Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y) va hunarmadlar tomonidan

ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (X_i) o'rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti $r_{Y,X1} = 0,8638$ false, $t = 7,2743$ false va $\text{prob.} = 0,0000$ false ga teng. Bu esa mazkur ikki omil o'rtasida kuchli bog'lanish borligini, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti ishonchli ekanligi va 95 foiz aniqlikda ikki omil o'rtasida musbat kuchli bog'lanish mavjudligini ko'rsatadi.

Demak, Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y) bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan omillar o'rtasida korrelyatsiya koeffitsiyentlari Studentning t-mezoni hisoblangan qiymati va ehtimolli bo'yicha qo'yiladigan talablariga to'liq javob berar ekan. Bu shundan dalolat beradi. Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmiga (Y) ta'sir etuvchi barcha omillarni ko'p omilli ekonometrik modelga kiritish lozim.

4-jadval. Hunarmandchilik xizmat ko'rsatish omillari o'rtasida ko'p chiziqlik samarasini baholash⁵

Variance Inflation Factors

Date: 01/03/25 Time: 11:32


Sample: 2014S1 2023S2

Included observations: 20

Variable	CoefficientVariance	CenteredVIF
X1	0.886354	1.601757
X2	2392.665	5.728900
X3	70.30022	8.984905
X4	87.17277	5.094351
C	1.21E+09	NA

Ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud emasligini tekshirishning yana bitta usuli - VIF (Variance Inflation Factors - multikollinearlik samarasi) koeffitsiyentlarini hisoblashdir. Har bir omil bo'yicha hisoblangan VIF koeffitsiyentlari quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

Yuqorida aytilganlarni tekshirishda, ya'ni omillar o'rtasida bog'lanish zichliklari va shakllarini aniqlashda har bir omilning natijaviy omil (Y) bilan bog'liqligini aniqlash uchun ularning nuqtali grafiklarini ko'rib chiqamiz (3.35-rasm).



2-rasm. Buxoro viloyatida hunarmandchilik sohasida xizmat ko'rsatish sifati (X_i) va eksport hajmi (Y) o'rtasidagi bog'lanish shakllari grafigi⁶

Agar ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud bo'lsa, u holda $\text{CenteredVIF} > 10$ bo'ladi. 4-jadvaldan ko'rish mumkin. Buxoro viloyatida hunarmandchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y) bo'yicha barcha ta'sir etuvchi omillarning VIF koeffitsiyentlari 10 dan kichik. Demak, bu ham omillar o'rtasidagi korrelyatsiya tahlili kabi ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud emasligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilayotgan natijaviy omilni statsionarlikka tekshirish uchun, ya'ni yagona ildizga ega ekanligini aniqlash uchun kengaytirilgan Diki-Fuller testi o'tkazildi. Kengaytirilgan Diki-Fuller testi natijalari 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval. Hunarmandchilik xizmat ko'rsatish omillarining statsionarligini aniqlash uchun kengaytirilgan Dickey-Fuller testi⁷

Null Hypothesis: LNY has a unit root

Exogenous: Constant

Lag Length: 0 (Automatic - based on SIC, maxlag=1)

		t-Statistic	Prob.*
Augmented Dickey-Fuller test statistic		-3.834571	0.0245
Testcriticalvalues:	1% level	-3.959148	
	5% level	-3.081002	
	10% level	-2.681330	
*MacKinnon (1996) one-sided p-values.			

Buxoro viloyatida hunarmandchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y) bo'yicha statsionarlikni aniqlashda hisoblangan Diki-Fuller testida ham ehtimollik ($\text{prob.} = 0,0245$) 5 foizdan kichik ekan. Bu esa o'z navbatida natijaviy omil qatori statsionar ekanligini ko'rsatmoqda.

Demak, omillar o'rtasida multikollinearlik hamda natijaviy omil qatorida geteroskedastlik mavjud emasligini hisobga olgan holda Buxoro viloyatida hunarmandchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y) va unga ta'sir etuvchi

6 Muallif ishlanmasi

7 Muallif ishlanmasi



omillar (X_i) bo'yicha ko'p omilli ekonometrik model tuzamiz. Mazkur ko'p omilli ekonometrik model quyidagi ko'rinishga ega:

$$y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_nx_n + \varepsilon, \quad (1)$$

bu yerda y – natijaviy omil, x_i false – ta'sir etuvchi omillar, ε false – tasodifiy xato.

Hisoblangan 6-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y) bo'yicha hisoblangan ko'p omilli ekonometrik modelni analitik ko'rinishda ifodalaymiz:

$$\hat{Y} = -34084,4 + 0,703X_1 + 65,111X_2 + 17,809X_3 + 44,586X_4 \quad (2)$$

Hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model (2) shuni ko'rsatadiki, hunarmadlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (X_1) o'rtacha bir mln. so'mga ortsa, Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y) o'rtacha 0,703 mln. so'mga ortar ekan. Buxoro viloyatida hunarmandlar soni (X_2) o'rtacha nafarga ortsa, Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y) o'rtacha 65,111 mln. so'mga ortar ekan. Buxoro viloyatida hunarmandlarga ajratilgan kreditlar hajmi (X_3) o'rtacha bir mln. so'mga ortsa, Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y) o'rtacha 17,809 mln. so'mga ortar ekan. Buxoro viloyatida hunarmandchilik bilan band bo'lganlar soni (X_4) o'rtacha bir nafarga ortsa, Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y) o'rtacha 44,586 mln. so'mga ortar ekan. Ko'p omilli ekonometrik

modeldagi (1) noma'lum $a_0, a_1, a_2, \dots, a_n$ falseparametrlar qiymatlarini aniqlashda “eng kichik kvadratlar usuli” dan foydalandik. Natijalar yuqoridagi 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval. Hunarmandchilik xizmat ko'rsatish sifatining eksport hajmiga ta'sirini baholash uchun hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model parametrlari⁸

Dependent Variable: LNY

Method: Least Squares

Date: 01/03/25 Time: 11:41

Sample: 2014S1 2023S2

Included observations: 20

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X1	0.703300	0.941464	1.809204	0.0905**
X2	65.11108	28.91487	2.251820	0.0430***
X3	17.80914	8.384522	2.124049	0.0507**
X4	44.58647	9.336636	4.775433	0.0002***
C	-34084.38	34810.74	-0.979134	0.3430
R-squared	0.907779	Mean dependent var		75403.90
Adjusted R-squared	0.883187	S.D. dependent var		69284.07
S.E. of regression	23679.82	Akaike info criterion		23.19495
Sum squared resid	8.41E+09	Schwarz criterion		23.44389
Loglikelihood	-226.9495	Hannan-Quinn criter.		23.24355
F-statistic	36.91337	Durbin-Watson stat		1.882164
Prob(F-statistic)	0.000000			

Izoh: *** - 0.05 foiz aniqlikda, ** - 0.1 foiz aniqlikda

Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y) bo'yicha tuzilgan ko'p omilli ekonometrik model (2) sifatini tekshirishda determinatsiya koeffitsiyentidan foydalanamiz. Determinatsiya koeffitsiyenti natijaviy omil necha foizga modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatadi. Hisoblangan determinatsiya koeffitsiyenti (R^2 - R-squared (6-jadval)) 0,9078 ga teng. Demak, Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmining (Y) 90,78 foizi hisoblangan (2) ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatmoqda. Qolgan 9,22 foizi (100,0-90,78) esa hisobga olinmagan omillar ta'siri ekanligini ko'rsatmoqda.

Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y) bo'yicha tuzilgan (2) ko'p omilli ekonometrik modelning statistik ahamiyatligini tekshirish uchun Fisherning F-mezoni jadval qiymatini topamiz. Buning uchun




ozodlik darajalari $k_1 = m$ false va $k_2 = n - m - 1$ false hamda α false ahamiyatlik darajasi bo'yicha qiymatlarni hisoblaymiz. Ahamiyatlik darajasi $\alpha = 0,6$ false va ozodlik darajalari $k_1 = 4$ false va $k_2 = 0 - 4 - 1 = 5$ false dan kelib chiqib, F-mezonning jadval qiymati ga teng. F-mezonning hisoblangan qiymati $F_{hisob} = 36,9134$ va jadval qiymati $F_{jadval} = 3,06$ ga teng ekanligidan kelib chiqib va $F_{hisob} > F_{jadval}$ sharti bajarilganligi uchun (2) ko'p omilli ekonometrik modelni statistik ahamiyatli deyish mumkin hamda undan Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmini (Y) kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkin.

Hisoblangan ko'p omilli ekonometrika modeldagi (2) parametrlarning ishonchligini Student t-mezoni orqali tekshiramiz. t-mezonning jadval qiymatini tanlangan ishonchlik ehtimoli (α false) va ozodlik darajasi ($d.f. = n - m - 1$ false) shartlar asosida topamiz. Bu yerda n false - kuzatuvlar soni, m false - omillar soni. Ishonchlik ehtimoli $\alpha = 0,6$ false va ozodlik darajasi $d.f. = 0 - 4 - 1 = 5$ false bo'lganda, t-mezonning jadval qiymati ga teng.

Ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan barcha omillar bo'yicha t-mezonning hisoblangan qiymatlari $\alpha = 0,6$ false aniqlikda va $\alpha = 0,1$ false aniqlikda jadval qiymatidan katta ekanligini ko'rish mumkin (6-jadval). Bu esa barcha omillarni ishonchli ekanligini bildiradi va mazkur omillarga ko'p omilli ekonometrik modelda ishtirok etishiga imkon beradi.

Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y) bo'yicha tuzilgan ko'p omilli ekonometrik model (2) bo'yicha natijaviy omil (Y) qoldiqlarida avtokorrelatsiya mavjudligini tekshirish uchun Darbin-Uotson (DW) mezonidan foydalanamiz. Hisoblangan DW qiymati jadvaldagi DW_L va DW_U bilan taqqoslanadi. Agar $DW_{hisob} < DW_L$ dan kichik bo'lsa, natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelatsiya mavjud deyiladi. $DW_{hisob} > DW_U$ dan katta bo'lsa, natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelatsiya mavjud emas deyiladi. Darbin-Uotson mezonining pastki chegarasi qiymati $DW_L = 0,90$ ga teng va yuqori chegarasi qiymati $DW_U = 1,83$ ga teng. $DW_{hisob} = 1,8821$ ga teng. Demak, $DW_{hisob} > DW_U$ bo'lgani uchun natijaviy omil (Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y)) qoldiqlarida avtokorrelatsiya mavjud emas ekan.



3-rasm. Buxoro viloyatida hunarmandchilik sohasida xizmat ko'rsatish sifatining eksport hajmiga ta'sirini ifodalovchi ekonometrik model qoldiqlari, haqiqiy va bashorat)qiymatlari dinamikasi⁹

Natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelatsiyaning mavjud emasligi ham yuqorida keltirilgan (2) ko'p omilli ekonometrik modeldan prognozda foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y) bo'yicha hisoblangan (2) ko'p omilli ekonometrik modelning haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o'rtasidagi farqlar (Residual) quyidagi 2-rasmda keltirilgan.

Yuqoridagi 2-rasmdan ko'rish mumkinki, hisoblangan (2) ko'p omilli ekonometrik model bo'yicha Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmining hisoblangan qiymatlar grafigi uning haqiqiy qiymatlari grafigi bilan juda yaqin joylashgan, ular o'rtasidagi farqlar ham unchalik katta emas. Bu esa hisoblangan (2) ko'p



omilli ekonometrik modeldan Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmini kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkinligini yana bir isboti hisoblanadi.

Ushbu holatlardan foydalanib (2) ko'p omilli ekonometrik model yordamida Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmini (Y) kelgusi davrlarga prognoz hisoblarini amalga oshiramiz.

Buning uchun avvalo har bir ta'sir etuvchi omil bo'yicha trend model tuzamiz. Trend model – bu ta'sir etuvchi omilning vaqtga bog'liq funksiyasidir hamda u umumiy holda quyidagi ko'rinishga ega:

$$X_i = \beta_0 + \beta_1 \cdot t + \varepsilon \quad (3)$$

Hunarmadlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (X_1) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\hat{X}_1 = 44254,0 + 3766,494 \cdot t \quad (4)$$

$$R^2 = 0,9649_{\text{false}}, F_{\text{o'chilma}} = 242,8712_{\text{false}}, t_{\text{o'chilma}} = 5,5843_{\text{false}}$$

Hunarmandlar soni (X_2) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\hat{X}_2 = 419,5526 + 9,8331 \cdot t \quad (5)$$

$$R^2 = 0,8865_{\text{false}}, F_{\text{o'chilma}} = 6,0699_{\text{false}}, t_{\text{o'chilma}} = 8,1283_{\text{false}}$$

Hunarmandlarga ajratilgan kreditlar hajmi (X_3) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\hat{X}_3 = 624,5 + 305,3143 \cdot t \quad (6)$$

$$R^2 = 0,9300_{\text{false}}, F_{\text{o'chilma}} = 115,3058_{\text{false}}, t_{\text{o'chilma}} = 0,7381_{\text{false}}$$

Hunarmandchilik bilan band bo'lganlar soni (X_4) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\hat{X}_4 = 866,0368 + 194,0632 \cdot t \quad (7)$$

$$R^2 = 0,8742_{\text{false}}, F_{\text{o'chilma}} = 8,3563_{\text{false}}, t_{\text{o'chilma}} = 7,6391_{\text{false}}$$

Ta'sir etuvchi omillar va vaqt omili o'rtasida tuzilgan trend modellar tahlili shuni ko'rsatadiki (4) – (7) trend modellardagi barcha hisoblangan koeffitsiyentlarning statistik ahamiyatliligi, parametrlarining ishonchligi aniqlandi. Demak, (4) – (7) trend modellarini hisoblaymiz va ularning hisoblangan qiymatlarini (2) ko'p omilli ekonometrik modelga qo'yib, avvalo ta'sir etuvchi omillarning (X_i) prognoz qiymatlarini, keyin esa natijaviy omilning (Y) prognoz hisob-kitoblarini amalga oshiramiz. Natijada Buxoro viloyatida hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmining (Y) (2) ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan o'zgaruvchilarining prognoz davridagi qiymatlariga ega bo'lamiz (7-jadval).

7-jadval. Buxoro viloyatida hunarmandchilik sohasida xizmat ko'rsatishning eksport hajmiga ta'sirini ifodalovchi ko'rsatkichlarning prognoz qiymatlari¹⁰

Yillar	Hunarmadchilik mahsulotlari eksporti hajmi, mln. so'm, Y	Hunarmadlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so'm, X1	Hunarmandlar soni, nafar, X2	Hunarmand-larga ajratilgan kreditlar miqdori, mln. so'm, X3	Hunarmand-chilik bilan band bo'lganlar soni, nafar, X4
2014	3512	100472	854	2055	2327
2015	8872	111345	965	2844	3001
2016	9525	129732	1161	3537	4039
2017	10663	144809	1458	5419	5002
2018	160365	160940	1746	7418	5821
2019	296697	172656	2114	10214	6968
2020	157139	207020	2246	10326	5851
2021	174973	188578	1934	12054	4999
2022	307334	216977	2091	10681	8981



2023	378998	243534	2187	12058	11085
2024	376706	250469	2552	14378	10077
2025	417778	265535	2711	15599	10853
2026	458850	280601	2871	16820	11629
2027	499923	295667	3030	18041	12406
2028	540995	310733	3189	19263	13182
2029	582067	325799	3349	20484	13958
2030	623140	340865	3508	21705	14734


Yuqoridagi 7-jadval ma'lumotlari tahliliga ko'ra, 2014–2030 yillar davrida Buxoro viloyatida hunarmandchilik mahsulotlari eksporti hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etadi. Har bir omilni tahlil qilish natijalari quyidagicha xulosa qilish mumkin.

Birinchidan, hunarmandchilik mahsulotlari eksporti hajmi (Y) 2014-yilda 3 512 mln so'mdan 2030-yilgacha 623 140 mln so'mgacha o'sishi kutilmoqda. Bu o'sish mahsulot turlarining kengayishi, tashqi bozorda raqobatbardoshlikni oshirish, davlat subsidiyalari va infratuzilmaning rivojlanishi bilan bog'liq.

Ikkinchidan, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (X_1) 2014-yilda 100 472 mln so'mdan 2030-yilgacha 340 865 mln so'mga yetgan. Texnologik yangilanish va mahsulot dizaynini bozor talabiga moslashtirish asosiy sabablardir.

Uchinchidan, hunarmandlar soni (X_2) 2014-yilda 854 nafardan 2030-yilgacha 3 508 nafarga oshishi kutilmoqda. Bunda yoshlar va ayollar ishtirokini oshirishga qaratilgan dasturlar muhim ahamiyat kasb etadi.


To'rtinchidan, hunarmandlarga ajratilgan kreditlar miqdori (X_3) 2014-yilda 2 055 mln so'mdan 2030-yilda 21 705 mln so'mgacha oshib borishi kutilmoqda. Bu hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash uchun imtiyozli kreditlar ko'lamining kengayishi natijasidir.



4-rasm. Buxoro viloyatida hunarmandchilik sohasida xizmat ko'rsatish omillari va eksport hajmi ko'rsatkichlarining prognoz qiymatlari dinamikasi (2014-2030 yy.)¹¹

Beshinchidan, hunarmandchilik sohasida band bo'lganlar soni (X_4) 2014-yilda 2 327 nafardan 2030-yilgacha 14 734 nafargacha oshishi kutilmoqda. Bu mehnat bozoridagi islohotlar, turizm va ichki bozor talabining o'sishi bilan bog'liq.

Hunarmandlar soni o'sishi, odatda, mahalliy mehnat bozorida ushbu sohaning jozibadorligini va yangi ish o'rinlari yaratilishini ko'rsatadi. Ko'proq hunarmandlar jalb qilinishi ishlab chiqarish hajmini oshirishga va eksportni rivojlantirishga zamin yaratadi.




5-rasm. Buxoro viloyatida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar sonining prognoz qiymatlari dinamikasi (2014-2030-yy.)¹²

Hunarmandlar soni yildan yilga o'sib, 2014-yildagi 854 nafar ko'rsatkichdan 2030-yilda 3508 nafargacha yetdi. Bu esa hududda hunarmandchilikka qiziqishning ortgani va mehnat bilan ta'minlash siyosatining samaradorligini ko'rsatadi.

Hunarmandchilik bilan band bo'lganlarning soni o'sishi mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratilganini va sohaning ijtimoiy ahamiyatini oshirganini bildiradi. Bu ko'rsatkich hududdagi umumiy bandlik darajasi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

2014-yildagi 2327 nafardan boshlangan ko'rsatkich 2030-yilda 14734 nafarga yetgan. Bu, birinchi navbatda, hunarmandchilikning ahamiyatini oshiruvchi davlat dasturlari va mahalliy tashabbuslarning muvaffaqiyatli amalga oshirilganidan dalolat beradi.

2014–2030-yillar davomida Buxoro viloyatida hunarmandchilik sohasining eksport hajmi, ishlab chiqarish salohiyati, bandlik darajasi va moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichlarida barqaror o'sish kuzatilmoqda. Eksport hajmi 3 512 mln. so'mdan 623 140 mln. so'mgacha oshishi, hunarmandlar sonining qariyb to'rt barobar ortishi va kreditlash hajmining sezilarli darajada kengayishi hududdagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim ko'rsatkichlaridir.



6-rasm. Buxoro viloyatida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar sonining prognoz qiymatlari dinamikasi (2014-2030-yy.)¹³

12 Muallif ishlanmasi

13 Muallif ishlanmasi



Mazkur sohaning rivojlanishi milliy eksport salohiyatini kuchaytirish, aholi bandligini ta'minlash va hudud iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Innovatsion yondashuvlar, davlat dasturlari va xususiy sektor ishtirokidagi qo'llab-quvvatlash bu sohani mintaqaviy iqtisodiyotda strategik ahamiyatga ega tarmoq darajasiga olib chiqishi kutilmoqda. Hunarmandchilik sohasi nafaqat iqtisodiy, balki madaniy merosni asrab-avaylash va targ'ib qilishda ham muhim rol o'ynamoqda.

Umuman olganda, ekonometrik tahlil va prognoz natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, 2014–2030-yillar davomida Buxoro viloyatida hunarmandchilik mahsulotlari eksporti, ishlab chiqarish hajmi va sohada band bo'lganlar soni barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, kreditlash hajmi kengayishi ham sohaning investitsion jozibadorligini tasdiqlaydi. Mazkur o'zgarishlar aholi bandligini oshirish, milliy mahsulotlarning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini kuchaytirish, iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlash va madaniy merosni saqlashda hunarmandchilik sohasining tobora muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Buxoro viloyatida hunarmandchilik sohasining 2014-2024-yillar davomidagi rivojlanish dinamikasi va 2030-yilgacha prognozi bo'yicha olib borilgan ekonometrik tahlil muhim xulosa va xulosalarga asos beradi. Tuzilgan ko'p omilli ekonometrik model ($R^2=0,9078$) hunarmandchilik mahsulotlari eksport hajmining 90,78 foizi tanlangan omillar (ishlab chiqarish hajmi, hunarmandlar soni, kreditlar va bandlik) bilan izohlanishini tasdiqladi. Korrelyatsion tahlil asosida ishlab chiqarish hajmi ($r=0,8638$) va hunarmandlar soni ($r=0,8278$) eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillar ekanligi aniqlandi. Prognoz hisob-kitoblari 2030-yilda eksport hajmining 623 140 mln so'mga (177 barobar o'sish), hunarmandlar sonining 3 508 nafarga, bandlik darajasining 14 734 nafarga yetishini ko'rsatmoqda. Mazkur o'sish tendensiyalari sohaning viloyat iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ekonometrik modelning statistik ahamiyatliligi ($F=36,91$, $p<0,001$), parametrlarning ishonchlilikligi (t -mezoni bo'yicha) va qoldiqlarning avtokorrelyatsiyadan xoli ekanligi ($DW=1,88$) modeldan amaliy prognozlashda foydalanish mumkinligini isbotlaydi. Tadqiqot natijalari hunarmandchilik sohasini rivojlantirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berish imkonini yaratadi: kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish, eksport infratuzilmasini modernizatsiyalash, kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish. Olingan natijalar mintaqaviy iqtisodiy siyosatni ilmiy asoslash, investitsiya loyihalarini baholash va hunarmandchilik sohasining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish va aholi bandligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6341-son Farmoni (2021-yil 26-oktyabr).
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Hunarmandchilikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 20-avgustdagi 682-son qarori.
3. Buxoro viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari (2014-2024 yillar).
4. Gujarati D.N., Porter D.C. Basic Econometrics. 5th Edition. McGraw-Hill, 2009. 922 p.
5. Wooldridge J.M. Introductory Econometrics: A Modern Approach. 7th Edition. Cengage Learning, 2019. 848 p.
6. Maddala G.S., Lahiri K. Introduction to Econometrics. 4th Edition. Wiley, 2009. 634 p.
7. Baltagi B.H. Econometric Analysis of Panel Data. 6th Edition. Springer, 2021. 423 p.
8. Dickey D.A., Fuller W.A. Distribution of the Estimators for Autoregressive Time Series with a Unit Root // Journal of the American Statistical Association. 1979. Vol. 74. No. 366. P. 427-431.
9. Durbin J., Watson G.S. Testing for Serial Correlation in Least Squares Regression // Biometrika. 1950. Vol. 37. No. 3-4. P. 409-428.
10. Ismoilov R.A., Karimov N.G. Mintaqaviy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning nazariy-metodologik asoslari. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. 256 b.
11. Abdullayev Ya.K., Raximova G.M. Ekonomiko-matematicheskoye modelirovaniye regionalnogo razvitiya. Tashkent: Fan, 2019. 184 s.
12. O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirish: muammo va yechimlar / Mas'ul muharrir: N.X.Jumayev. Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. 312 b.
13. Yuldashev N.M. Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari. Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2022. 268 b.
14. UNCTAD. Creative Economy Outlook: Trends in International Trade in Creative Industries. Geneva: United Nations, 2022. 156 p.
15. World Bank. Small and Medium Enterprises Finance: New Findings, Trends and G20/Global Partnership for Financial Inclusion Progress. Washington DC, 2020. 89 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>